

**O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH VA TEZ TIBBIY
YORDAM XIZMATI XUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI VA
TAKOMILLASHTIRILISHI**

Termiz davlat pedagogika institute

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası

*o‘qituvchisi **Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana***

Kalit so‘zlar; *Sog‘lik, shifokor, qishloq vrachlik punktlari, salomatlik, JSST, reproduktiv salomatlik, kasallik, epidemiya, aholi, tibbiy xizmat, tez tibbiy yordam, ekologiya.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar dunyo higozida qanday talqin qilinayotganligi hamda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so‘nggi yillarda jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog‘liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *sog‘liqni saqlash tizimi islohoti, tibbiy ta‘lim, sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, telemeditsina, profilaktika va sog‘lomlashtirish, xalqaro hamkorlik*

Abstract: *This article provides information on how Uzbekistan's health care reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.*

Key words: *healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation*

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы.

Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества. Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Mustaqillik yilarida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasi va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, tibbiyot sohasini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan sogliqni saqlash tizimida qilingan ishlar muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli biz mazkur tadqiqotda tibbiyot sohasining muhim va asosiy bo‘g‘ini hisoblangan qishloq vrachlik punkti va tez tibbiy yordam hodimlari faoliyatini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo‘ydik. Shuningdek maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridagi respublikadagi aholi salomatligining umumiy holatlarini islohatlardan keyingi jarayonlar bilan aniq tahlillar asosida qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek olingan tahlil natijalari asosida tibbiyot sohasi hodimlarining ish samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish. So‘ngi yillarda dunyoda atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolar, globallashuv jarayoni, turli xil epidemiya va viruslarning yangi turlari tarqalayotganligi bugungi kunda dunyo mamlakatlarida xususan respublikamizda sog‘liqni saqlash sohasiga jiddiy e‘tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Jismonan sog‘lom, teran fikrlaydigan fuqarolar mamlakat

tayanchi hisobanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilishga jiddiy kirishilgan. Hukumatimiz bu borada ko‘plab xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan ko‘p yillarga mo‘ljallangan dasturlar asosida ish olib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu hamkorlik natijasida qator ijobiy natijalarga erishildi, xususan onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik, sil kasalligigi va boshqa ko‘plab kasalliklarga qarshi kurashish yuizasidan qator ijobiy natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng boshqa sohalar kabi sog‘liqni saqlash sohasida ham qator ijobiy yangiliklar amalga oshirildi. Tibbiyot sohasida ham yangi davrga qadam qo‘yildi. Sho‘rolar davridan qolgan sog‘liqni saqlash tizimi sohada bir qancha muammolar yig‘ilib qolganligini ko‘rsatdi. Yosh mustaqil davlat o‘z oldiga ijtimoiy sohada shu jumladan birinchi galda sog‘liqni saqlash sohasidagi nuqson va kamchiliklarga chek qo‘yish hamda bu sohani yangi yuqori bosqichga ko‘tarish choralarini ko‘rishga kirishdilar. Shu sababga ko‘ra mazkur sohaga oid jarayonlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga doir qator maqolalar 1 va ilmiy ishlar 2 nashr etildi. Bu davrdagi adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ko‘pchilik tadqiqotchilar e‘tibori asosan xalq tabobatini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu soha bir guruh tarixchi olimlar tomonidan tarixiylik nuqtai nazaridan ham tadqiq etildi. Ular tomonidan sohaning XIX asrning oxirgi choragi va sovet davri tarixi bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Ta’kidlash joizki,

XIX-XX asr tarixi o‘rganilib, asosiy e‘tibor sog‘liqni saqlash tizimining yo‘lga qo‘yilishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, sanitariya-epidemiya xizmati kabi muassasalarga qaratilgan. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining mustaqillik davri tarixiga doir ilmiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, sohaning sovet davri tarixi o‘rganilgan bo‘lsada, uning keyingi yillardagi tarixi maxsus tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan. Umuman, murojaat etilgan tadqiqotlarda

mazkur yo‘nalishning u yoki bu jihatlari qamrab olinganligi va ular butun tizim tarixini yoritishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ham ta’kidlash lozimdir. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida va keyingi davrlarda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tashkil etishning huquqiy asoslarining mustahkamlanib borishi mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta’kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o‘rganildi: olib borilgan chora tadbirlar natijasida respublikadagi sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyati ko‘rsatkichlari yil sayin yaxshilanib borganligi, ayniqsa mustaqillikning dastlabki yillarida kuzatilgan kasallanishlar sonining kamayib, shifoxonalar va poliklinikalar sonining esa ko‘payib borganligini ko‘rsatishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida Respublikamizda sog‘liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu sohaning tarixi va nazriyasiga doir ilmiy jihatdan tan olingan qarashlardagi O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimining mustaqilik davri tarixini tadqiq etishda va o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy-metodik jihatlar aniqlangan. XX asrning 80-yillari oxirlarida mintaqada yuzaga kelgan keskin ekologik vaziyat tufayli mamlakatda o‘tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi jarayoni ortdi. Bu davrda o‘tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi kengayib bordi. Xususan 1990 yilgi ma’lumotlarga qaraganda , 100ming aholi soniga nisbatan hisoblaganda qorin tifi kasalligi 7,6, paratiflar 4,8, salmonellez 36,5, poliomelet (qoqshol) kasalligi 42, qizamiq19,1, o‘tkir yuqumli ichak kasalligi 604,8, virusli gepatitlar 848,4 tani tashkil etgan edi. Bundan tashqari brutsellez kasalligi bilan og‘rish 950 taga, bo‘g‘ma kasalligining soni 12tani, kuydurgi 13taga oshgan. Bundan tashqari tabiatdagi salbiy o‘zgarishlar ta’siri ostida 1980 yildan boshlab 1991 yilga qadar

kamqonlik bilan hastalanish 550 barobar ortdi va 10ming aholi hisobiga 1160 kishi darajasiga yetdi. Bu ko‘rsatkich Rossiyada ikki uch xolatgagina to‘g‘ri kelardi. Qon bosimining oshish kasalligi keyingi yigirma yilda 60 barobar, jigar toshi va siydik toshi bilan kasallanishlar soni 7 barobar oshgan . O‘lim va kasalliklar darajasining nihoyatda yuqori ekanligidan ko‘rishimiz mumkinki, endilikda inson organizmi ekologik holatlar vujudga keltirayotgan zarbalarga dosh berolmay qoldi. Shu va boshqa sabablar insonlar sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazdi, millat genofondining yomonlashuvini keltirib chiqardi, hamda mamlakatimiz miqyosida sog‘liqni saqlash sohasiga jiddiy e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Tibbiyot sohasidagi jiddiy kamchiliklardan biri shunda ediki “Sog‘liqni saqlash” deb nomlangan eski tizimda tibbiyot xodimlari moddiy manfaatdor emas edilar. Bu holat esa aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish ishiga salbiy ta‘sir etardi. Tibbiyot xodimlari o‘zlariga belgilab qo‘yilgan maoshdan tashqari hech qanday daromad manbaiga ega emas edilar. Tibbiyot xodimlariga mehnat haqqi to‘lashda har bir vrachni tajribasi va bilim darajasi inobatga olinmay, shu vrach ishlayotgan sohadagi tibbiy xodimlar uchun belgilab qo‘yilgan darajada maosh to‘lanardi. Bu esa shifokorlar orasida loqaydlik va ishchanlik qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Shu sabablar ham bizning tibbiyotimiz G‘arbiy Yevropa tibbiyotidan orqada qolishiga olib keldi. Mustaqikkacha bo‘lgan davrda mamlakatimizda ilmiy-nazariy tibbiyot ham yetarli darajada rivojlanmagan edi. Biz jahon tibbiyoti yutuqlaridan to‘g‘ridan tog‘ri tanishish imkoniyatiga ega emas edik. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tibbiyotimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el tibbiyoti bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Chet el tibbiy muassasalari bilan hamkorlikda ishlay boshladilar. Mustaqillika erishilgandan keyin hukumatimiz tomonidan ko‘plab sohalar singari sog‘liqni saqlash sohasida ham qator islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu sohada dastlab, 1992 yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sanitariya nazorati

to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad sanitariya-epidepiya masalalarida aholini muhofaza qilish hamda insonlarni qulay atrof muhitda yashash huquqining kafolati bo'ldi. Shuningdek ushbu qonun sanitariya epidemiologiya sohasini takomillashtirish, sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida muhim qadam bo'ldi. 1996 yil 29-avgustda "O'zbekiston Respublikasi fuqrolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalar belgilab qo'yilgan edi. Xususan ushbu qonunda fuqrolarning sog'lig'ini saqlashga doir quyidagi asosiy tamoillar keltirib o'tilgan edi.

- Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi
- Profilaktika chora tadbirlarining ustunligi.
- Sog'lig'ini yo'qotgan fuqrolarning ijtimoiy himoya qilinishi.
- Tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining strukturasi va vakolatlari ham belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri ushbu sohani isloh qilish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10- noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi maxsus farmoni chiqarildi. Mazkur qonunni respublika sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, huquqshunos, olim va shu sohaga daxldor tashkilotlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash davlat dasturi ishlab chiqildi. Farmonda aytilishicha, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash shuningadek, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash uchun tibbiyot muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash ko'zda tutilgan edi. Dasturda sog'liqni saqlash tizimining quyidagi kondensiyasi tavsiya etilgan edi: bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan hamda byudjetdan moliyalanadigan davolash profilaktika muassasalarini shakllantirish, qishloq vrachlik punktlarining

tarmog'ini kengaytirish, tibbiyot hodimlarining malaka va toifalarini oshirib borish, shu maqsadda tibbiyot bilim yurtlarini kasbhunar kollejlariiga aylantirish ko'zda tutilgan. Dasturda tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha bir nechta tibbiy tashkilotlar negizida Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatining mintaqaviy filiallarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Farmonda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi va joylardagi filiallari malakali mutahassislar bilan to'ldirilsin deyilgan . So'nggi yillarda tez va shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi: O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 21.05.2009 yil PF1114-sonli "Tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni va 2011 yil 28-noyabrdagi PQ 1652-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Ushbu xujjatlarda shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati samaradorligini, xizmatlar tezkorligi va sifatini oshirish vazifasi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu qaror va farmonlar natijasi o'laroq Respublikamizda shoshilinch tez tibbiy yordam markazlari va bo'limlari faoliyati kengaytirildi, sifati va moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra shoshilinch tez tibbiy yordam markazlarida yotib davolanib chiqqanlar soni ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Bu raqamlar albatta Respublikada shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining takomillashib borganligi, yangi davolanish binolari va tez yordam brigadalarining tashkil etilganligi, xizmat ko'rsatish sifatining ortib borganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi qaror va farmonlar ijrosi natijasida Respublikada 2012 yil boshiga kelib 3196 ta qishloq vrachlik punktlari faoliyat yuritayotgan 8 bo'lib, ular negizida chekka qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish punktlari ochildi. Mazkur sog'liqni saqlash muassasalarida aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatilib, ular bilan profilaktik jarayonlar ham amalga oshirib borildi. Xulosa va takliflar. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sog'liqni saqlash sohasini isloh qilinishi natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini

huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning viloyat shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari binolari qayta ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko'lamli islohotlar natijasida mavjud qishloq vrachlik punktlari o'rnida qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida shifokorlarning ish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda oltita tor soha mutahasislari pediater, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta'mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda tez tibbiy yordam shahobchalarining poliklinikalarga ko'chirilganligi ham tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohatlar bugungi kunda o'zining dolzarbligini ko'rsatib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-ro'yxat , 82-yig'ma jild, 11-varaq.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89.
3. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet. 3 O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M372-fond, 1-ro'yxat , 82-yig'ma jild, 11-varaq.
- 4 Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89.
4. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent2014.191-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2010 yil. – B.15
6. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi